

# XORIJIY TILNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

**Borataliyeva Noila Shuxratjon qizi**

**Farg‘ona davlat universiteti**

**Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabasi**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini fan sifatida o‘qitishda yangi zamonaviy metod turlari va ulardan darslardan foydalanish usullari, qolaversa metodlardan samarali foydalanishning amaliy jihatlari xususida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, ushbu metodlar chet tilini o‘quvchilarning puxta o‘zlashtirishida, shu tilda bemalol gapira olishida qo‘l kelishi haqida ham so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** innovatsion texnologiyalar, metod, Ingliz tili, usul, dars, nutq, sertifikat, dunyoqarash.*

***Аннотация:** Эта статья обсуждает новые современные методы и способы их использования в обучении английскому языку как предмету. Кроме того, рассматриваются практические аспекты эффективного использования этих методов. Кроме того, статья также касается важности этих методов в помощи студентам легко адаптироваться и свободно говорить на языке.*

***Ключевые слова:** инновационные технологии, метод, английский язык, подход, урок, речь, сертификат, глобальная перспектива.*

***Annotation:** This article discusses new modern methods and ways of using them in teaching English as a subject. Additionally, practical aspects of effectively using these methods are also considered. Furthermore, the article also touches upon the importance of these methods in helping students to easily adapt to and speak the language fluently.*

***Key words:** innovative technologies, method, English language, approach, lesson, speech, certificate, global perspective.*

**Kirish.** Ma'lumki, 2021-yili mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida chet tillarini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirishga bag‘ishlangan

anjumanda 2021-yildan boshlab chet tili o'qituvchilari uchun milliy va xalqaro darajadagi sertifikatga ega bo'lish talabi qo'yildi. Bu esa albatta, xorijiy til o'qituvchilarining zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Ular doimgi an'anaviy dars metodlari orniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan tarzda dars jarayonlarini tashkil qilishadi. Bu ta'lim davr talabi ham bo'lib, o'qituvchilarning yana o'z ustilarida ishlashini talab qiladi. Ushbu maqolada dars o'tishning yangi usullariga e'tiborimizni qaratar ekanmiz, avvalo, bu usullarning turi va zamonaviy texnologiyalar bilan olib borilishiga ahamiyat berishimiz kerak.

Shunga alohida e'tibor berishimiz kerakki, respublikamizda xorijiy tilning o'qitilishi, xorijiy til o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos holda zamonaviy usul va talablar ishlab chiqildi. Unga ko'ra, umumta'lim va o'rta-maxsus ta'lim o'quv yurtlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratilmoqda. Shu talablarga mos holda, o'quv xonalari ham zamonaviy axborot-kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Ma'lumki, chet tili fani to'rt jihatdan (o'qish, yozish, tinglab tushunish va yozish)dan iborat bo'lib, ularning har biri uchun alohida tushunchalar beriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Chet tilini o'rganish va o'rgatish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish eng yaxshi samara beruvchi usullardan biri hisoblanadi. Bu jarayonlarda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalangan holda o'quvchi chet tikidagi video roliklarni, kino yoki multfilmlarni ham ko'rish, ham eshitib o'rganishi mumkin;
- xorijiy tildagi eshittirishlarni va televideniellarni dasturlarni tomosha qilish orqali o'rganishi mumkin.

Chet tili darslarining o'tilishi jarayonida e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihatlar shundaki, o'qituvchilar zamonaviy pedagogik metodlardan, interfaol va innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanishlari lozim.

**Muhokama va natijalar.** Chet tilini o'rganishda ilg'or pedagogik metodlarning o'rni katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday metodlardan biri shuki, dars jarayonida turli rolli o'yinlardan foydalanishdir. Bunda rolli o'yinlar hayotimizdagi turli vaziyatlarni chet tilini o'rganish jarayonida qo'llaniladi. Ushbu metod dars jarayonida tilning muhiti shakllanishida yordam beradi.

Masalan: 1-holatda tasodifan uzoq vaqtdan beri uchrashmagan do'stlar ko'rishib qolishadi. 2-holatda piyodalar o'tish joyidan o'tayotgan piyodalar o'tish joyidan o'tayotgan ayol svetoforga qaramasdan, qoidaga rioya qilmaydi. 3-holatda kiyim do'koniga ayollar xarid uchun kirishadi. Ushbu holatlar uchun sanha ko'rinishlari tashkil qilinadi. Bunday hayotiy rolli o'yinlar dars jarayonida turli til muhitini anchagina yaratadi, o'quvchilarga esa o'z fikrlarini erkin ifoda etishga yordam beradi. Bu rolli o'yinkarda ishtirok etish davomida o'quvchilar fikrlashga, o'z emotsional holatlarini chet tilida ifoda eta olishga o'rganadilar. Bu o'yinlarga tayyorgarlik jarayonida bir-birining leksik, grammatik va talaffuzdagi xatolarni to'g'irlashga harakat qilishadi. Xato qilib va u xatolarni to'g'irlash ham tilni o'rganishda sezilarli yordam beradi. Darsda shu kabi rolli o'yinlardan foydalanish bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarning darsda faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Shu bilan birga esa o'quvchilarning chet tilini o'rganishga qiziqishlarini oshiradi va dars jarayonlari jonli, quvnoq ruhda o'tadi. Bularning barchasi chet tili darslarining samarali o'tishini ta'minlaydi.

O'quvchilar uchun eng qiziqarli metodlardan biri bu – "Pantomimo" o'yini. Bu o'yinda o'quvchilar 3 guruhga ajratiladi. Har bir guruhdan bir kishi chiqadi va ularga turli so'zlarning ro'yxati beriladi. Ular hech bir so'z aytmasdan, imo-ishoralar, harakatlar orqali o'z guruhlariga so'zlarni tushuntirib berishlari kerak. „Muammoli vaziyat" (Creative problem solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanish qismi o'quvchilarga o'qib beriladi va qanday yakun topishi o'quvchilarga havola etiladi; -„Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish chet tilini o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi, bunda ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab, fikrlab to'g'ri javobni topishga harakat qilishadi; - „Rezkor javob" (Quick answers) o'tilgan darsning samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi. O'quvchilarni hunarga qiziqishini

oshirish uchun „Interpreter“, „Translator“, „Writer“, „Poet“ kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etib o‘quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin; - „Rasmlar so‘zlaganda“ (When pictures speak) usuli esa ancha qulay bo‘lib, chet tilini o‘rgatishda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradi, bu usulda mavzuga oid rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ko‘rib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiya o‘ziga xos afzalliklarga ega. Bu usullarning barchasida o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi o‘zaro hamkorlik, o‘quvchilarning dars jarayonidagi faol harakatlari ko‘zda tutiladi.

**Xulosa** qilib aytishim mumkinki, chet tilini o‘rgatish jarayonida innovatsion texnologiya va usullardan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini yanada o‘stiradi, nutqini ravonlashtiradi, dunyoqarashini o‘zgartiradi va qolaversa, tsz va to‘g‘ri javob berish qobiliyatini shakllantiradi. Bu kabi usullardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otadi. O‘quvchilarning darsga puxta hozirlik ko‘rishga undaydi. Bugungi ta‘lim tizimi o‘z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxslarni tarbiya qilishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yar ekan, kelgusida biz bo‘lajak o‘qituvchilar innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish usullarini yanada puxtaroq ishlab chiqishimiz bilan o‘z xissamizni qo‘shishimiz mumkin.

## References

1. O‘. Hoshimov, I. Yoqubov. “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent: “Sharq nashriyoti”, 2003
2. J. Jalolov. “Chet til o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent: “o‘qituvchi” nashriyoti, 2012
3. M. Xoldorova, N. Farziyeva, F. Rixsitillayeva. “Chet tilini o‘qitishda yordamchi vositalardan foydalanish” Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.